

SHARTLI MAJBURIYATLAR VA SHARTLI AKTIVLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

Odiljonova Oybarchin

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
huzuridagi Fiskal instituti maqsadli tayanch doktaranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda xo'jalik yurituvchi subektlar buxgalteriya hisobini yuritishda,xalqaro moliyaviy hisobotlarda qarz majburiyatlarining vujudga kelishining o'ziga xos jixatlari ochib berilgan. Mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning izlanishlari tadqiq qilingan va mavzu bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: majburiyat, MXXS, qarzlar,joriy majburiyatlar, uzoq muddali majburiyatlar,shartli majburiyatlar.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida xomashyo va materiallarni qayta ishlab va shular asosida xalqaro standartlarga javob beradigan tayyor maxsulotlarni ishlab chiqarib, ichki va tashqi bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish uchun, ishlab chiqarish jarayoniga va korxonalarda boshqaruv hisobiga innovatsiyalarni joriy etishga talab kundan kunga ortib bormoqda.

ASOSIY QISM

Iqtisodchi olim A.To'ychiyevning fikricha, "majburiyat deyilganda xo'jalik yurituvchi bir sub'ektning boshqa sub'ektga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va boshqa harakat natijasida yuzaga keladigan hamda keyingi o'zaro hisoblashishlarga asos bo'luvchi huquqiy munosabatlar" [5]deb tarif bergan.

Yana bir iqtisodchi olim S.Maxmudovning fikricha – "majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligini ko'rsatuvchi, ularning so'ndirilishi esa, qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergen xo'jalik muomalalarining natijasidir" [6] deb tariflaydi.

Ma'lumki majburiyatlar balansning passiv qismida aks ettirilib, ikki guruhga bo'linadi: joriy majburiyatlar va uzoq muddatli majburiyatlar.

Joriy majburiyatlar – bu majburiyatlar hisobot davri mobaynida bir yildan ortmagan

vaqtida so‘ndirilishi kerak bo‘lgan majburiyatlardir. Joriy majburiyatlarga asosan ish haqi, tovar moddiy zaxiralar yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar, soliqlar va majburiy to‘lovlari, uzoq muddatli bakn kreditlari va obligatsiyalarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi. Ko‘pchilik olimlarning ilmiy ishlarida va boshqa xorij adabiyotlarida joriy majburiyatlarni qisqa muddatli majburiyatlar deb yuritiladi. Bu ikki termin asosi bir deb qabul qilishimiz zarur.

Uzoq muddatli majburiyatlar – bu bir yildan ortiq vaqt davomida so‘ndiriladigan majburiyatlardir. Bularga asosan uzoq muddatli kreditlar, obligatsiyalar kechiktirilgan soliq majburiyatları, bir yildag ortiq bo‘lgan ijara to‘lovlari va boshqa kreditorlik qarzlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 21-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalar” nomli milliy standartida xo‘jalik yurituvchi subektlarning majburiyat va qarzlar bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini aks ettirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu milliy standart O‘zbekiston Respublikasi “Buhgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun asosida ishlab chiqilib, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi meyoriy xujjat bo‘lib hisoblanib kelmoqda va mulkchilik shaklidan qati nazar xo‘jalik xo‘jalik yurituvchi subektlar tomonidan ijro etilishi majburiy etib belgilangan.

Bizning fikrimizcha majburiyatlar quyidagi asosiy ikki xususiyatlar bilan belgilash mumkin:

1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning molivayi faoliyatini yaxshilash uchun qisqa yoki uzoq vaqt davomida to‘lanishi shart bo‘lgan, boshqa xo‘jalik yurituvchi subektlardan yoki bank va boshqa kredit tashkilotlaridan qarz olishning har qanday turi;
2. Xo‘jalik yurituvchi subektlar oldidagi majburiyati yoki javobgarligi evaziga ularga aktivlarni kelgusida topshirish yoki ularidan foydalanishni, hizmatlar ko‘rsatish va boshqa iqtisodiy foyda keltiradigan boshqa operatsiyalar bilan belgilangan va belgilanmagan sanada amalga oshiriladi.

Shartli majburiyat xo‘jalik yurituvchi subektning aktivlarini kamaytirishi va subektning kelgusi sof rentabelligi va pul oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli, shartli majburiyat haqidagi ma’lumotlar investorning qaroriga ta’sir qilishi mumkin. Shartli majburiyatlar Molivayi hisobotining xalqaro standartlari talablari asosida buxgalteriya hisobining tamoyillari bilan bog‘langan holda aks ettirilishga majbur. Ushbu muxim uchta tamoyillar quyidagilar:



- To‘liq oshkor qilish tamoyili
- Moddiylik tamoyili
- Ehtiyyotkorlik tamoyili

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyati davomida majburiyatlar tushunchasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo‘llanilgan majburiyatlar tushunchasi bilan taqqoslanganda, bir qancha farqlar aniqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining to‘liq oshkor qilish, moddiylik, ehtiyyotkorlik tamoyillari asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/acts/-3107036>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 fevraldagи PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standarlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>
3. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risda”gi qonunning 7-moddasi. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
4. “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” nomli O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti. 38-band. - T.: UzBAMA, 2003. -42 b.
5. A.To‘ychiev “Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari” dissertatsiya . Toshkent 2011y. TMI
6. Maxmudov S. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. avtoref. – Toshkent: 2006. -22 b.
7. 37-sonli “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” BXXS. https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279.

